



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



**No11**  
**2025**

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,  
4-noyabr, 2025-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Oilaning maktabgacha yoshdagi bolalar estetik tarbiyasidagi o'rni .....	24
<i>Abdullayeva Ma'sudaxon Abdubannayevna</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga metodik tayyorlash texnologiyalari .....	27
<i>Abdubannoyeva Muxlisaxon Iqboljon qizi, Abdullayev Alibek Qodiraliyevich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlardan foydalanish zaruriyati .....	30
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Turdaliyeva Muslimaxon Jahongir qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida fortepiano chalishni o'rgatish metodikasi .....	34
<i>Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi</i>	
Maktabda fizika fanini o'qitishda innovatsion yondashuv .....	38
<i>Alinazarova Mahfuza</i>	
Tasavvufdagi "komil inson" konsepsiyasining hozirgi ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv sifatida talqini .....	43
<i>Aqilxonov Saidolimxon Abdurashid o'g'li</i>	
Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish omillari va pedagogik shart-sharoitlar .....	48
<i>Choriyeva Gulbaxor Shotemirovna</i>	
Robototexnika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanib mustaqil ta'limni tashkil etish .....	53
<i>Elmonov Sirojiddin Mamadiyarovich</i>	
Xalqaro baholash dasturlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha jahon tajribasi .....	58
<i>Ergasheva S. T.</i>	
Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv salohiyatini rivojlantirish .....	61
<i>Eshmamatova Dilnoza Jovli qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini oshirishda tarbiyachi mahorati .....	64
<i>Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi</i>	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni takomillashtirish .....	68
<i>Hojikarimova Gulasal Tadjaliyevna</i>	
Xorijiy talabalarga o'zbek tilini o'rgatishda elektron platformalar yaratish .....	71
<i>Jo'rayeva Matluba</i>	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli ta'lim muhitini modellashtirish va uning samaradorlik omillari .....	74
<i>Komilova Z. X.</i>	
O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati .....	80
<i>M. Yu. Mahkamova</i>	
Psixologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirish masalalari .....	86
<i>Madazizova Dilfuza Raxmatullayevna</i>	
Integrating Listening and Speaking Skills in ESP (English for Specific Purposes) Classes .....	90
<i>Madina Tilavova</i>	
Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida neyropedagogik yondashuvlar .....	94
<i>N. O. Saidova</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida radiologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning metodologik roli .....	99
<i>Nazarova Gulchexra Shuxratdjonovna</i>	
Ijodkorlik tushunchasining mohiyati va uning ta'limdagi roli .....	103
<i>Ochilova Dilbar Isroilovna</i>	
Alaliyani boshqa nutqiy nuqsonlar bilan farqli xarakteristikasi .....	108
<i>Oripova Zilola</i>	
Ingliz tilini o'qitishda suggestopediya metodini joriy etishning samaradorligi .....	113
<i>Pulatova Sitora Abdurazzoq qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalari menejerlarining kasbiy-boshqaruv kompetentligi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari .....	118
<i>Qarshiboyev Sharof Egamnazarovich</i>	
Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning yosh badmintonchilar texnik-taktik tayyorgarligiga ta'siri .....	122
<i>Qurbanova Ilmira Alisher qizi</i>	



Blended Learning .....	125
<b>Quvandikova Xadicha</b>	
Fizika darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish .....	129
<b>Raxmanov Valijon Turdaliyevich, O'razaliyev Alijon Xasan o'g'li</b>	
“Qurilish jarayonlari texnologiyasi” fanida loyihalash kompetentligining tarkibiy tuzilmasi va uni raqamli ta'limga moslashtirish .....	135
<b>Raxmonova Nazokat Umaraliyevna</b>	
Vitagen texnologiyalar asosida talabalar mediamentalitetini rivojlantirishda sun'iy intellekt (AI) dasturlaridan foydalanishning tahliliy modeli .....	140
<b>Rustamova Nodira Rustamovna</b>	
Talabalarda kooperativ ta'lim asosida motivatsiyani rivojlantirish usullari .....	145
<b>Sitora Toshmatova</b>	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ kompetensiyani shakllantirishning zaruriyati .....	149
<b>Tashibekova Munajat Xoshimovna</b>	
Musiqqa ta'limining pedagogik asoslari va metodik tizimi .....	153
<b>Toshpulatova Saida Kuzibaevna</b>	
Texnologiya fanini o'qitishda eng samarali metodlardan foydalanish .....	158
<b>Turdiyeva Shahzoda Eshdavlrat qizi</b>	
Enhancing University Students' Self-Directed Learning Through Edtech Tools .....	161
<b>Ulasheva Lobar</b>	
Fanlararo loyiha ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning dizayn fikrlash salohiyatini oshirish .....	164
<b>Valiyeva Nargiza Athamboyevna</b>	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari.....	169
<b>Xakimova Sarvinov Sharifjon qizi</b>	
Sun'iy intellekt asosida yaratilgan ta'lim platformalari: samaradorlik tahlili va pedagogik yondashuvlar .....	173
<b>Xanbabayev Hakimjon Ikramovich, Erkinov Jasurbek Hasanjon o'g'li</b>	
Tasavvufdagi “muhosaba” va “tafakkur” amallarining o'z-o'zini refleksiya metodlari sifatida qo'llanilishi .....	176
<b>Xoshimov Nuriddin Mamadaliyevich</b>	
Milliy sport va ommaviy o'yinlarning badiiy-estetik ahamiyati.....	182
<b>Yaxyayeva Sojida Abdurahimovna</b>	
Ota-ona mehriining bola psixologiyasiga ta'siri .....	185
<b>Yulchiyeva Shohsanam Dilshod qizi</b>	
Nutq rivojlanishi orqada qolgan bolalarda qo'llaniladigan innovatsion usullari samaradorligi .....	189
<b>Ahmedova Nargiza Muzaffarovna</b>	
Факторы, сдерживающие развитие науки в контексте требований к диссертационным работам .....	193
<b>Зайналов Жахонгир Расулович, Нурмухамедов Аббос Мамадалиевич, Шадманов Камолиддин Кажакджанович, Самигова Нодира Хамидуллаевна</b>	
Структура и стратегии развития предметных компетенций .....	197
<b>Наимова Мафтунабону Файзулложоновна</b>	
Психологическая консультация: современная практика, задачи и перспективы развития .....	203
<b>Раупова Шохида Ахроровна</b>	
Подготовка будущих педагогов к инклюзивному обучению детей с ограниченными возможностями здоровья: задачи и перспективы .....	207
<b>Сайфутдинова Насиба Нурматовна</b>	
Формирование иноязычной грамотности у курсантов военных вузов: социально-психологические факторы.....	211
<b>Сулейманова Нилуфар Камилловна</b>	
O'qituvchi shaxsiy kompetensiyasining mohiyati va pedagogik faoliyatdagi o'rni .....	214
<b>Abdiraxmonova Guliston Muzaffar qizi</b>	
Bolalarda axloqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonining milliy va umuminsoniy tamoyillari .....	218
<b>Abdumutalipova Gulshodaxon Nurbek qizi</b>	
Fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyat va uni rivojlantirish jarayonlari .....	221
<b>Abdusalimova Shaxnoza Quduratullayevna</b>	
Ta'lim menejmenti tizimida o'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish strategiyalari .....	224
<b>Abduxalilova Iroda Nozimxonovna</b>	

<p style="writing-mode: vertical-rl; transform: rotate(180deg);">MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS</p>	<p>O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalashda        "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning ustuvor vazifalari ..... 229  <b>Abirova Umida Nazarovna</b></p> <p>Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'lim sharoitida differensiyalashtirilgan dars        mashg'ulotlarini tashkil etishga o'rgatish (kompetentligini shakllantirish/rivojlantirish) usullari..... 232  <b>Adhamova Diyora Sanjar qizi</b></p> <p>Musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishda sambochilarning energiya sarfi va        tiklanish mexanizmlari tahliliy ..... 239  <b>Tangriyev Abdukarim Tovashevich</b></p> <p>Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakat faolligini        takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati..... 244  <b>Hafizov Shahriyor Shavkatovich</b></p> <p>Bo'lajak tarbiyachilarning transversal: tanqidiy va innovatsion fikrlash kompetensiyalari ..... 248  <b>Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi</b></p> <p>Axborotning gnoseologik mohiyati..... 256  <b>Kamolova Munajatxon Jaloldinovna</b></p> <p>Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari ..... 259  <b>Mamatova Aziza Bo'ribojevna</b></p> <p>Akademik litseylarda kimyo fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari .... 262  <b>Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich</b></p> <p>Pedagogik oliy ta'limda talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini        korporativ madaniyat asosida rivojlantirish metodikasi..... 267  <b>Maxkamova Dilafuz Aliyevna</b></p> <p>Bo'lajak o'qituvchilar uchun xorijiy tillarni o'qitishda lingvomadaniy yondashuv ..... 271  <b>Normamatova Kamola Gulmamat qizi</b></p> <p>O'zbek tili izohli lug'atida iboralarning grammatik tavsifi (bosh komponentli iboralar misolida)..... 274  <b>S. Sh. Azamatova</b></p> <p>Oila instituti va gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy muammolari ..... 277  <b>Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi</b></p> <p>Gender yondashuv asosida talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning namunaviy mezonlari..... 282  <b>Xolova Mohigul Shavkatovna</b></p> <p>Pedagogika yo'nalishi talabalari huquqiy savodxonligini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish..... 287  <b>Xudoyberganov Atham</b></p> <p>Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik komponentlikni TRIZ texnologiyasi yordamida rivojlantirish ..... 291  <b>Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Fayzullayeva Nazokat Uchqun qizi</b></p> <p>Цифровизация и трансформация образования как социально-педагогическое явление ..... 295  <b>Кадирова Наргиза Азаматовна</b></p> <p>Методика формирования креативного мышления у студентов-филологов        на основе проблемно-ориентированных заданий (на материале английского языка) ..... 298  <b>Мамырбаева Дина</b></p> <p>Структура и стратегии развития предметных компетенций ..... 304  <b>Наимова Мафтунабону Файзулложоновна</b></p>
--	--



# MUSIQA TA'LIMINING PEDAGOGIK ASOSLARI VA METODIK TIZIMI

Toshpulatova Saida Kuzibaevna

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada musiqa ta'limining pedagogik asoslari va metodik tizimi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Musiqa ta'limining shaxs rivojlanishidagi o'rni, uning kognitiv, emotsional, ijodiy va kommunikativ tamoyillar orqali ta'sir etish mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Tibbiy ta'lim yo'nalishidagi talabalar uchun musiqaning stressni kamaytirish, emotsional barqarorlikni ta'minlash hamda empatiya kabi kasbiy sifatlarni rivojlantirishdagi ahamiyati alohida yoritilgan. Maqolada musiqa ta'limini fanlararo integratsiyada qo'llash, musiqiy terapiya metodlari, shuningdek, dars ishlanmalari asosida pedagogik yondashuvlar amaliy jihatdan ochib berilgan. Tadqiqot natijalari musiqa ta'limining estetik, psixologik va kasbiy rivojlanishda muhim omil ekanini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** musiqa ta'limi, pedagogik asoslar, metodik tizim, musiqa terapiyasi, tibbiy ta'lim, emotsional barqarorlik, estetik did.

**Abstract:** This article provides a scientific and theoretical analysis of the pedagogical foundations and methodological system of music education. It examines the role of music education in personal development and the mechanisms of its influence through cognitive, emotional, creative, and communicative principles. Special attention is given to the importance of music for medical students in reducing stress, ensuring emotional stability, and developing professional qualities such as empathy. The article highlights the practical aspects of using music education in interdisciplinary integration, methods of music therapy, and pedagogical approaches based on lesson design. The research results demonstrate that music education is a significant factor in aesthetic, psychological, and professional development.

**Key words:** music education, pedagogical foundations, methodological system, music therapy, medical education, emotional stability, aesthetic taste.

**Аннотация:** В данной статье научно-теоретически анализируются педагогические основы и методическая система музыкального образования. Рассмотрено значение музыкального образования в развитии личности, а также механизмы его воздействия через когнитивные, эмоциональные, творческие и коммуникативные принципы. Особое внимание уделено роли музыки в снижении уровня стресса, обеспечении эмоциональной устойчивости и формировании таких профессиональных качеств, как эмпатия, у студентов медицинских направлений. В статье раскрыты практические аспекты применения музыкального образования в междисциплинарной интеграции, методы музыкальной терапии, а также педагогические подходы, основанные на разработке уроков. Результаты исследования показывают, что музыкальное образование является важным фактором эстетического, психологического и профессионального развития.

**Ключевые слова:** музыкальное образование, педагогические основы, методическая система, музыкальная терапия, медицинское образование, эмоциональная устойчивость, эстетический вкус.

## KIRISH

Musiqa qadimdan insoniyat hayotining ajralmas qismi bo'lib kelgan. U nafaqat san'atning bir ko'rinishi, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy, estetik va intellektual rivojida muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Musiqa ta'limi jarayonida talaba shaxsida estetik did, emotsional sezgirlik, muloqot madaniyati, ijodkorlik va reflektiv tafakkur kabi sifatlar shakllanadi. Shu jihatdan musiqa ta'limining pedagogik asoslari va metodik tizimini ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan chuqur o'rganish hozirgi davrda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bugungi globallashuv sharoitida musiqa ta'limi nafaqat madaniyat yoki pedagogika sohasi bilan, balki tibbiyot, psixologiya, sotsiologiya va hatto texnologiya bilan ham uzviy bog'lanmoqda. Xususan, tibbiy ta'limda musiqadan foydalanish stressni kamaytirish, emotsional barqarorlikni ta'minlash hamda talabalarda empatiya kabi kasbiy fazilatlarni shakllantirishda samarali vosita ekanini ko'rsatmoqda. Shu sababli maqolada musiqa

ta'limining pedagogik imkoniyatlari, metodik yondashuvlari va ularning fanlararo integratsiyadagi o'rni tahlil qilinadi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Musiqa ta'limining nazariy va metodik asoslarini tadqiq etishda mahalliy hamda xorijiy olimlarning ishlarida muhim ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Jahon tajribasida musiqa ta'limi shaxsning estetik, emotsional, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishida o'ziga xos o'rin tutadi. Xususan, J. Dewey, B. Bloom, J. Piaget kabi pedagogik nazariyotchilarning konstruktivizm, faol o'qitish va taksonomiya konsepsiyalari musiqa ta'limining metodik tizimini shakllantirishda ilmiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar o'quvchini faol subyekt sifatida ko'rish, ijodiy ifodani qo'llab-quvvatlash hamda musiqiy tajriba orqali shaxsiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan.

Musiqa ta'limining ilmiy-nazariy asoslari, asosan, estetik tarbiya, musiqaning ma'naviy-axloqiy ta'siri va ijodiy fikrlashni rivojlantirish bilan bog'liq konsepsiyalarni qamrab oladi. D. B. Kabalevskiy, Z. Kodaly, K. Orff, J. Dalcroze kabi olimlarning ishlari bu sohada asosiy metodik yo'nalishlarni belgilab bergan. Masalan, Kodaly metodi xalq qo'shiqlari asosida bolalarda musiqiy eshituvni rivojlantirishni maqsad qilgan bo'lsa, Orff Schulwerk tizimi ijodiy harakat, ritm va improvizatsiyani ta'lim jarayoniga tatbiq etishga qaratilgan. Dalcroze esa musiqa va tana harakati o'rtasidagi uyg'unlik orqali ritmik sezgirlik va emotsional ifodani rivojlantirishni taklif etgan.

So'nggi yillarda xorijiy adabiyotlarda musiqa ta'limining yangi yo'nalishlari – ya'ni texnologiyaga asoslangan musiqa ta'limi, interfaol o'qitish metodlari, fanlararo integratsiya va musiqiy terapiya konsepsiyalari keng yoritilmoqda. M. Swanwick va S. Hallam kabi olimlar musiqaning shaxsning intellektual va hissiy rivojlanishiga ta'sirini chuqur tahlil qilib, uning psixologik barqarorlikni mustahkamlashdagi rolini asoslab berishgan. Shuningdek, E. Gordon musiqiy o'rganish nazariyasida (Music Learning Theory) musiqani til kabi o'rganish mumkinligi, ya'ni musiqiy tafakkurni rivojlantirish jarayoni lingvistik jarayonga o'xshash tarzda kechishini isbotlab bergan.

Musiqa ta'limining metodik tizimini takomillashtirishda fanlararo integratsiya yondashuvi alohida ahamiyat kasb etadi. Musiqa, psixologiya, pedagogika, sotsiologiya va tibbiyot fanlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik musiqaning ko'p qirrali ta'sir mexanizmini ochib beradi. Xususan, tibbiy ta'limda musiqadan stressni kamaytirish, emotsional barqarorlikni mustahkamlash va empatiya ko'nikmalarini rivojlantirishda foydalanish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda (J. Aalbers, A. Dileo). Ularning natijalari musiqaning ruhiy salomatlik, ijobiy hissiy holat va ijtimoiy aloqalarga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, musiqa terapiyasi psixokorreksion ta'sirga ega bo'lib, talabalarda stressni yengish, o'zini anglash va his-tuyg'ularni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston olimlari ham musiqa ta'limining pedagogik asoslarini o'rganish borasida bir qator tadqiqotlar olib bormoqdalar. Jumladan, A. Mavlonov, Sh. Yo'ldosheva, G. Abdurahmonova, Z. Abdullayeva va boshqalar o'z ishlarida musiqa darslarining tarbiyaviy ahamiyati, o'quvchilarda estetik didni shakllantirish va musiqiy tafakkurni rivojlantirishda o'qituvchining roli haqida ilmiy asosli fikrlar bildirishgan. Mahalliy tadqiqotlarda musiqaning xalq an'analari, milliy qadriyatlar va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan metodik tizimini ishlab chiqish muhim yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda musiqa ta'limining pedagogik asoslari va metodik tizimini chuqur o'rganish uchun bir qator zamonaviy hamda an'anaviy ilmiy-pedagogik metodlardan keng foydalanildi. Har bir metodning ahamiyati, tadqiqot jarayonidagi o'rni va amaliy misollar quyidagicha yoritildi:

- 1. Nazariy tahlil metodi.** Avvalo, tadqiqotning nazariy asoslarini mustahkamlash maqsadida nazariy tahlil metodi qo'llanildi. Bunda musiqa ta'limiga oid mahalliy va xorijiy adabiyotlar, monografiyalar, ilmiy maqolalar, o'quv dasturlari hamda ilg'or xorijiy tajribalar chuqur o'rganildi. Masalan, rus pedagogi D. B. Kabalevskiy va amerikalik musiqa ta'limi olimi E. Gordonning nazariyalari tahlil qilindi. Ushbu manbalarni o'rganish orqali musiqa ta'limining zamonaviy tamoyillari, ta'lim-tarbiya jarayonida musiqaning o'rni va ahamiyati, shuningdek, xalqaro tajriba asosida shakllangan innovatsion yondashuvlar aniqlab olindi.
- 2. Pedagogik kuzatuv metodi.** Tadqiqotning keyingi bosqichida pedagogik kuzatuv metodi asosida oliy ta'lim muassasalarida musiqa mashg'ulotlari jarayoni bevosita kuzatildi. Darslar davomida talabalar faolligi, ularning ijodiy yondashuvi, emotsional reaksiyalari, muloqot madaniyati va darsga bo'lgan munosabati muntazam ravishda qayd etib borildi. Masalan, bir guruh talabalarning ansambl mashg'ulotida o'zaro hamkorlik qilishi, yangi asarni ijro etishda o'z fikrini ochiq bildirishlari va o'qituvchi bilan erkin muloqot qilishlari kuzatuv natijalari sifatida qayd etildi.



3. **Eksperimental metod.** Tadqiqotda eksperimental metod ham keng qo'llanildi. Xususan, musiqa terapiyasi elementlari kiritilgan dars ishlanmalari sinovdan o'tkazildi. Bunda bir guruh talabalarga an'anaviy musiqa mashg'ulotlaridan tashqari, musiqaning stressni kamaytirish, emotsional holatni barqarorlashtirish va ijodiy motivatsiyani oshirishga yo'naltirilgan maxsus mashg'ulotlar tashkil etildi. Masalan, relaksatsion musiqa eshittirish, improvizatsiya mashqlari hamda musiqa asboblari yordamida emotsiyalarni ifodalash mashg'ulotlari o'tkazildi. Ushbu tajriba natijasida talabalar o'zlarining psixologik barqarorligi oshganini va stressni yengish ko'nikmalari rivojlanganini ta'kidlashdi.
4. **Interfaol metodlar.** Tadqiqot davomida interfaol ta'lim metodlariga, jumladan, rol o'ynash, musiqiy vaziyatli topshiriqlar, reflektiv muhokamalar, juftlik va guruhli ishlash kabi usullarga alohida e'tibor qaratildi. Masalan, talabalarga "kompozitor" va "ijrochi" rollari berilib, ular o'zaro muhokama orqali yangi asar yaratilishida ishtirok etdilar. Guruhli ishlashda esa kichik jamoalar turli musiqiy mavzularda loyiha tayyorlab, uni sinf oldida taqdim etdilar. Bu jarayon talabalar orasida ijodiy va kommunikativ ko'nikmalarning rivojlantirishiga, mustaqil fikrlash va hamkorlik madaniyatining shakllanishiga xizmat qildi.
5. **Fanlararo integratsiya metodi.** Musiqa ta'limi samaradorligini oshirish maqsadida fanlararo integratsiya metodi ham keng qo'llanildi. Musiqa, psixologiya, pedagogika va tibbiyot fanlari o'zaro uyg'unlashtirildi. Masalan, musiqa darslarida stressni kamaytirishga yo'naltirilgan psixologik mashqlar, emotsional barqarorlikni mustahkamlash uchun terapevtik musiqa eshittirish hamda empatiyani rivojlantirish maqsadida "tinglash va tushunish" mashqlari tashkil etildi. Ushbu yondashuv musiqaning nafaqat estetik, balki psixologik va ijtimoiy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi.
6. **Statistik va taqqoslash metodlari.** Tadqiqotning yakuniy bosqichida statistik va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar sifat va miqdoriy jihatdan tahlil qilindi. Tajriba va nazorat guruhlari o'rtasidagi farqlar statistik usullar yordamida hisoblab chiqildi va natijalar jadval hamda grafiklar orqali aniq ifodalandi. Masalan, eksperimental guruhda darsdan tashqari mashg'ulotlar natijasida talabalar ijodiy va psixologik ko'rsatkichlarining oshgani qayd etildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida bayon etilgan metodlar asosida o'tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

Musiqa ta'limining zamonaviy pedagogik asoslari va tamoyillari aniqlanib, ular mahalliy hamda xalqaro tajribalar bilan boyitildi. Musiqa darslarida ijodkorlik, emotsional rivojlanish va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarurligi ilmiy asoslandi. Talabalarning darslardagi faolligi, ijodiy yondashuvi va muloqot madaniyati sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Masalan, guruhli va juftlikda ishlash, musiqiy ijro jarayonida o'z fikrini ochiq ifoda etish ko'nikmalari rivojlandi. Kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, interfaol va ijodiy yondashuvlar talabalarni dars jarayoniga faol jalb etish imkonini beradi.

Musiqa terapiyasi elementlari kiritilgan dars ishlanmalari orqali talabalar psixologik barqarorligi va stressni yengish qobiliyatida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Tadqiqotda ishtirok etgan talabalar orasida darsdan tashqari mashg'ulotlar natijasida ijodiy motivatsiya va o'zini ifoda etish ko'nikmalarining oshgani statistik tahlillar orqali tasdiqlandi. Masalan, eksperimental guruhda stress darajasi 17% ga kamaygani aniqlandi. Rol o'ynash, reflektiv muhokama va musiqiy vaziyatli topshiriqlar kabi interfaol metodlar talabalar o'rtasida o'zaro hamkorlik, ijodiy fikrlash va kommunikativ ko'nikmalarni sezilarli darajada rivojlantirdi. Guruhli loyihalarda esa talabalar o'z musiqiy g'oyalarini erkin ifoda eta oldilar.

Musiqa ta'limi jarayoniga psixologiya, pedagogika va tibbiyot fanlarini integratsiya qilish musiqaning stressni kamaytirish, emotsional barqarorlikni ta'minlash va empatiya ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligini oshirdi. Musiqa orqali talabalar o'z his-tuyg'ularini boshqarish, boshqalarni tinglash va tushuna olish qobiliyatlarini egallashlari kuzatildi. Tajriba va nazorat guruhlari o'rtasida o'tkazilgan taqqoslash natijalari asosida, interfaol va innovatsion metodlar qo'llanilgan guruhda musiqiy, ijodiy va psixologik ko'rsatkichlar an'anaviy usulda o'qitilgan guruhga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. O'rganilgan parametrlar bo'yicha o'rtacha natijalar 15–20% ga yuqori bo'ldi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari musiqa ta'limida zamonaviy pedagogik va metodik yondashuvlarning yuqori samaradorligini ko'rsatdi. Kuzatuv va eksperimentlar natijasida aniqlangan musbat o'zgarishlar ilgari o'rganilgan ilmiy manbalar hamda boshqa tadqiqotlar bilan uyg'un ekanligi qayd etildi.

Avvalo, nazariy tahlil natijalari D. B. Kabalevskiy, E. Gordon, J. Elliot singari yetuk olimlarning musiqa ta'limiga oid qarashlari bilan uyg'unlashadi. Ularning tadqiqotlarida ham musiqa ta'limi orqali ijodkorlik, emotsional rivojlanish va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish muhim o'rin tutishi ta'kidlangan. Tadqiqotimizda ham ushbu jihatlar eksperimental va interfaol metodlar orqali amalda o'z tasdig'ini topdi. Pedagogik kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlar (rol o'ynash, reflektiv muhokama, guruhli ishlash) talabalarni

musiqa darslariga faol jalb etish, ularning mustaqil fikrlash, o'zini erkin ifoda etish va ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu xulosalar ilgari o'tkazilgan xorijiy tadqiqotlar (xususan, M. Swanwick va S. Hallam ishlarida) bilan hamohangdir.

Eksperimental metod natijalari musiqa terapiyasining nafaqat ijodiy, balki psixologik va emotsional barqarorlikni oshirishdagi ahamiyatini ko'rsatdi. Bu holat musiqa terapiyasining stressni kamaytirish va ruhiy salomatlikni mustahkamlashdagi afzalliklari haqida yozilgan J. Aalbers va A. Dileo tadqiqotlari bilan uyg'unlikda namoyon bo'ldi. Tadqiqotimizda ham musiqa terapiyasi elementlari kiritilgan mashg'ulotlar orqali talabalar stressni yengishda va motivatsiyani oshirishda ijobiy natijalarga erishdi. Fanlararo integratsiya metodining samaradorligi esa musiqa darslari orqali psixologiya va tibbiyot sohalaridagi asosiy konsepsiyalarni uyg'unlashtirish imkonini berdi. Natijada talabalar nafaqat musiqiy bilim va ko'nikmalarni, balki emotsional intellekt, empatiya va o'zaro muloqot madaniyatini ham rivojlantirdilar.

Statistik va taqqoslash natijalari esa innovatsion hamda interfaol metodlar qo'llangan tajriba guruhida musiqiy-ijodiy ko'rsatkichlar va psixologik barqarorlikning an'anaviy o'qitish usuliga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanini ko'rsatdi. Bu holat hozirgi zamonaviy ta'lim tendensiyalariga to'liq mos keladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, musiqa ta'limida zamonaviy pedagogik va interfaol metodlarni, shuningdek, fanlararo integratsiyani keng joriy etish talabalar ijodiy salohiyati va emotsional rivojlantirishida muhim omil hisoblanadi. Bu esa musiqa ta'limining ilmiy-nazariy asoslari hamda amaliy imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari va ularning tahlili asosida quyidagi muhim ilmiy-amaliy xulosalar chiqarildi:

- *Birinchi*dan, musiqa ta'limining zamonaviy pedagogik asoslari va metodik tizimini chuqur o'rganish natijasida aniq bo'ldiki, musiqa nafaqat estetik tarbiya va ijodiy salohiyatni rivojlantirish, balki shaxsning emotsional, psixologik va kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot davomida qo'llanilgan nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv, eksperimental, interfaol hamda fanlararo integratsiya metodlari musiqa ta'limining ko'p qirrali, tizimli va zamonaviy ta'lim talablariga javob bera oladigan yo'nalish ekanini ko'rsatdi.
- *Ikkinchi*dan, interfaol metodlar – rol o'ynash, reflektiv muhokama, vaziyatli topshiriqlar, guruhli va juftlikda ishlash – talabalarning dars jarayoniga faol jalb etilishiga, ularning mustaqil fikrlash, o'zini erkin ifoda etish, ijodiy tafakkur va kommunikativ ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qildi. Ushbu metodlarning samaradorligi ilgari o'tkazilgan xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan hamohang bo'lib, zamonaviy ta'lim jarayonida ularni keng joriy etish zarurligini tasdiqladi.
- *Uchinchi*dan, musiqa terapiyasi elementlari asosida tashkil etilgan dars mashg'ulotlari talabalarning psixologik barqarorligi, stressni yengish qobiliyati va ijodiy motivatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Olingan natijalar xalqaro ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan musiqa terapiyasining afzalliklari bilan mos keladi. Demak, musiqa ta'limida terapevtik yondashuvlarni keng qo'llash yoshlarning ruhiy salomatligini mustahkamlashda samarali vosita bo'la oladi.
- *To'rtinchi*dan, fanlararo integratsiya yondashuvi musiqa ta'limini psixologiya, pedagogika va tibbiyot fanlari bilan uyg'unlashtirish orqali musiqaning inson shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi kompleks imkoniyatlarini aniqlashga yordam berdi. Bu yondashuv musiqa fanini nafaqat badiiy-estetik, balki psixologik-pedagogik va sog'lomlashtiruvchi ahamiyatga ega fan sifatida qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.
- *Beshinchi*dan, statistik va taqqoslash natijalari asosida aniqlanishicha, innovatsion va interfaol metodlar joriy etilgan guruhlarda musiqiy, ijodiy va psixologik ko'rsatkichlar an'anaviy usullarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Bu holat zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni uzluksiz takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, musiqa ta'limining zamonaviy metodik tizimi talabalarning ijodiy, emotsional va kommunikativ salohiyatini rivojlantirishda, ruhiy salomatlik va shaxsiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari asosida kelgusida musiqa ta'limi mazmunini boyitish, innovatsion va interfaol metodlarni keng joriy etish hamda fanlararo yondashuv asosida yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Bu chora-tadbirlar nafaqat musiqa ta'limining samaradorligini oshirish, balki zamonaviy ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni qondira oladigan barkamol, estetik didi rivojlangan va ruhiy jihatdan sog'lom avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimova, X. (2022). Jismoniy tarbiya va musiqa terapiyaning integratsiyasi. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Kuzibaevna, O. G. (2020). Technologies of developing the ecological culture of students in the process of learning a foreign language in higher educational institutions. *Solid State Technology*, 63(1s), 1816–1825.
3. Maslow, A. H. (1954). *Motivation and Personality*. New York: Harper & Row.
4. Nazarova, M. (2021). Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda biologiyaning roli. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
5. Obidova, G. K. (2016). Закономерности и принципы становления и развития экологической культуры будущих учителей в системе педагогического образования. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, (3–5), 82–85.
6. Tadjiyeva, A. E. (2021). Таълим самарадорлигини оширишда педагогик-психологик технологиялардан фойдаланиш. *Scientific Progress*, 3(1), 313–320.
7. Toshpulatova, M., & Ilhomjonova, R. (2022). Teaching and learning English through digital technology. *Engineering Problems and Innovations*, 4(2), 55–62.
8. Toshpulatova, M. I. (2021). The main features in teaching English for specific purposes. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(5), 207–214.
9. Tursunov, D. (2020). O'zbek milliy musiqa terapiyasi orqali ruhiy salomatlikni tiklash. Samarqand: Innovatsion nashriyot.
10. Ukhtomskiy, A. A. (1989). *Dominanta*. Sankt-Peterburg: Meditsina nashriyoti.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №11**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.